"YAXSHILIK VA YOMONLIK" KONSEPTINING MAQOLLAR ORQALI IFODALANISHI

Burqutbayeva Muhayyo Toir qizi
Tadqiqotchi

Annotatsiya
Ushbu tezisda konsept, uning lingvistikadagi o'rni, yaxshilik va yomonlik konseptlarining aksiolingvistik tahlili, uning dolzarbligi va til madaniyat egalarining tasavvurlari bilan bog'liq asosiy bilimlarni tashuvchi eng qimmatli qadriyat ekanligi izohlangan.

Kalit so'zlar: lingvistika, konsept, aksiologik konsept, maqol, leksema, yaxshilik, yomonlik, baho.

Konsept tilning ijtimoiy gumanitar sathiga tegishli kognitiv, ayni paytda, lingvokulturologik birlik sifatida muhim milliy-madaniy qadriyatlarni tadqiq etuvchi hamda til va millat butunligiga oyna tutuvchi tugal lingvistik hodisa ekanligi bilan ahamiyatlidir. Dunyo tilshunosligida konsept hodisasining o'rganilishi bilan bog'liq tadqiqotlar talaygina. Lingvistika inson – til – tafakkur - madaniyat kesishmasining muhim birligi bo'lgan konsept va konseptual tadqiqotlarga ehtiyoj sezmoqda. Hozirgi paytda ikki - uch til qiyosida turfa xil lingvomadaniy konseptlarni o'rganishning ilmimizda jadal tus olayotgani ayni shu ehtiyojni qondirish yo'lidagi sa'y harakatlarni bildiradi. Jumladan, bugungi kunda madaniy til konseptlari anchayin ko'p jahon tilshunoslarining tadqiqot obyektiga aylanib ulgurdi. Shunga qaramay, yaxshilik va yomonlik konseptlari va u bilan bog'liq lingvomadaniy, lingvokognitiv xususiyatlarning chog'ishtirma tadqiqiga zarurat kuchayib bormoqda. Jahon tilshunosligida aksiologik konsept va uning xalq qadriyatlari bilan bog'liqligini ko'rsatish va bu xususdagi nazariy qarashlarni umumlashtirib berishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Aksiologik konseptlarning xususiyatlari bo'yicha bir qancha tadqiqotlar yaratildi.

"Konsept" termini tilshunoslikda bir vaqtning o'zida ham zamonaviy, ham tarixiy sanaladi. XX asrning 90-yillarida fanda keng qo'llanila boshlagan ushbu tushuncha lotincha "conseptus" so'zidan olingan bo'lib, "tushuncha" degan ma'noni anglatadi. Ushbu atamaga ilk bor 1928-yil S.Askoldov o'zining "Konsept va so'z" maqolasida to'xtalgan edi. Tilshunoslikda barcha olimlar tomonidan qabul qilingan konseptning ayni bir ta'rifi mavjud emas. Aksiologik konseptlar konseptlarning asosiy bir turidir. Ularda milliy va baynalmilal xarakterdagi axloqiy-ma'naviy asoslar jamlanadi. aksiologik konseptlar doimo shaxsning atrofdagi dunyoga, uning obyektlariga, xususiyatlariga, hodisalariga va munosabatlariga baho berishi bilan bog'liq. Aksiologik konseptlar ham boshqa konseptlar kabi til yordamida ifodalanadi. Masalan, yaxshilikni aksiologik konsept deya olinadigan bo'lsa, bunda avvalo insonning bahosi muhim ahamiyat kasb etadi. Vorkachevning tadqiqotini tahlil qilinsa, u aksiologik konseptning asosiy elementi inson ekanligi, uning bahosi muhim ahamiyat kasb erishi namoyon bo'ladi. Insoniyat uchun hamma narsa muhim: yaxshilik, tinchlik, baxt, taqdir va boshqalar. Dunyo xalqlarining ko'pchilik qismi yaxshilik javobsiz qolmasligi, taqdir, sevgiga ishonishadi. Shu sababli ham ushbu tushunchalar konsept darajasiga ko'tarilgan. Har qanday so'z ham konsept bo'la olmaydi. Masalan: qozon, tosh, bekat.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Maqollar – xalqning donoligini, millatning ruhini , uning madaniyatini ko‘rsatadigan xalq og‘zaki ijodining gavharidir. Bu “gavhar” nafaqat tilshunoslar, balki boshqa turli soha vakillarini ham qiziqtirib qo‘ygan: madaniyatshunoslar, folklorshunoslar, etnograflar, tilshunoslar, psixologlar va boshqalar.

Xalq onggida yaxshilik aksiologik konsept sifatida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ifodalaydi. Yaxshilik leksemasining yasalishida asos bo‘lib xizmat qilgan “yaxshi” leksemasi tilda polisemantik xarakter kasb etadi. U o‘zida ijobiylikdan tashqari mard, jasur, ziyrak, go‘zal kabi semalarni birlashtirib keladi. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, ”yaxshilik” aksiologik konsepti nafaqat mavhum, balki estetik-emotsional-baholovchi belgilarni ham o‘z ichiga oladi. Yaxshiga gap gapirsang ninadek bo‘lar, yomonga gap gapirsang tuyadek bo‘lar maqolida xalq tilidagi bo‘rttirmoq, oshirmoq tushunchasi o‘z ifodasini topgan. Yaxshining suhbati qaymoq, yomonning suhbati qarmoq matnida aksiologik mazmun qaymoq va qarmoq leksemalari orqali ifodalangan. Qaymoq semantikasidagi yoqimli, xush yoquvchi semalari, qarmoq semantikasidagi “tuzoq”,”to‘siq” semalari zidligi baholash asosi bo‘lib xizmat qilgan. Maqollarda “yomonlik” aksiologik konsept sifatida bir qator umumiy xususiyatlarni birlashtiradi. Masalan, yomonlikka yaxshilikdan kuchli deb ta’rif berilgan. Bir ilon bir uy odamni tinchitmas; Yaxshilik ko‘zga ko‘rinmas, yomonlik ko‘mib qo‘yilmas . Shu kabi maqollar boshqa xalqlar tilida ham salmoqli o‘rin egallaydi.

Yaxshilik ko‘zga ko‘rinmas,
Yomonlik ko‘mib qo‘yilmas.

Ko‘z – ko‘rish a’zosi, tashqi tana a’zolaridan biri. Ba’zan shunday holatlar uchraydiki, qilingan yaxshilik ko‘rinmaydi, ammo ozroq yomonlik barchaga ayon bo‘lib qoladi. Yaxshilik-yomonlik aksiologik juftligi yuzaga kelgan. Bu yerda baho ko‘z so‘zi orqali namoyon bo‘lgan. U orqali butun maqolning ma’nosi anglashiladi. Shabnamga quduq to‘lmas, dunyoga baxil shabnam shu darajada mayda narsaki qancha bo‘lsa ham u bilan quduqni to‘ldirib bo‘lmaydi, baxil ham xuddi shunday uning qanchalik boyligi moddiyati bo‘lsa ham u hech qachon to‘ymaydi. Bu yerda baho baxil so‘zi orqali ifodalangan va u aksqadriyatni anglatadi. Yaxshiga gap gapirsang ninadek bo‘lar, yomonga gap gapirsang tuyadek bo‘lar maqolida xalq tilidagi bo‘rttirmoq, oshirmoq tushunchasi o‘z ifodasini topgan. Dili qoraning – tili qora maqolida baxil insonning baxilligi tiliga ham ta’sirini o‘tkazmay qolmasligi, uning tilida ham moddiylashish aks etishi ifodalangan. Ko‘ngli qoradan pes yaxshi - baxillik insondagi yomon illatlarning eng yuqorisida deb ta’riflanyapti. Bu aksiologemalarda qora so‘zi aks qadriyatni bildiradi va u salbiy bahoni anglatib keladi. Qora so‘zi kuch-qudratni ham anglatib keladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, konsept “inson va dunyo o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rnatadigan madaniy qatlamni” o‘zida namoyon qiladi. Jamiyat a’zolari o‘rtasidagi muloqot vositasi, axborot tashuvchisi “robitayi olamiyon” deya ta’rif berilgan til madaniyat egalarining tasavvurlari bilan bog‘liq asosiy bilimlarni tashuvchi, yetkazib beruvchi eng qimmatli qadriyatdir. har qanday yaxshilikni aks ettirgan til birligi borki, o‘zida ham milliy-madaniy o‘zlikni, ham universal estetik bahoni ifodalashga xizmat qiladi. Shu jihatdan ushbu til birliklarini o‘rganish fanda yangi ilmiy-nazariy xulosalarning vujudga kelishiga qimmatli ulushini qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гумбольдт В. О различии строения человеческих языков и его влияние на духовное развитие человечества // Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1985. – 450 с.
2. Қамбаров Ғ. С. Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши (шахслараро муносабат асосида) филол. Фан. ... номз дисс. – Т: 2008. – 224с.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

3. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab… // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – 23 b.
4. Раҳматуллаев Ш, Маматов Н, Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1989. – 38 б.
5. Ўзбек халқ мақоллари // Ғ. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент, 1978. – Б. 512.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.